Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya

Joriy yil 4-5-avgust kunlari O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etishning dolzarb masalalari” mavzusidagi akademik Ubaydulla Karimov xotirasiga bag’ishlangan XVIII xalqaro konferensiya o’tkazildi.







Konferensiya Islom hamkorligi tashkiloti islom tarixi, san’ati va madaniyatini tadqiq etish markazi (IRCICA), O’zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamkorlikda tashkil etildi.

Unda respublikamiz va xorijiy davlatlardan yetakchi soha mutaxassislari, yosh tadqiqotchilar ishtirok etishdi.

Konferensiya ishida qo’lyozmalarni ta’mirlash, saqlash, restavratsiya jarayonlari, manba va matnlar tahliliga oid masalalar, Islom madaniyati, tarixi, buyuk allomalarimizning ilmiy merosini o’rganish, Markaziy Osiyo tarixi va tarixshunosligi, me’moriy yodgorliklar tarixi, Sharq xalqlari adabiyotining ommalashuvi va ma’naviy-badiiy qirralari, Sharq tillarining o’ziga xos jihatlari hamda o’zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar jarayoni, O’zbekistonning xorijiy Sharq mamlakatlari bilan munosabatlari, yetuk sharqshunos olimlar hayoti va ijodi hamda zamonaviy siyosiy va ijtimoiy masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Konferensiya materiallari asosida “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etishning dolzarb masalalari” “Current Conditions of the Preservatıon and Research of Ancient Written Sources” nomli to’plam nashr etiladi. To’plamdan 80 ga yaqin maqola o’rin egallaydi.

Konferensiya yakunida faol yosh tadqiqotchilar taqdirlandi.




"CURRENT STATE OF THE PRESERVATION
AND RESEARCH OF ANCIENT WRITTEN
SOURCES"


"CURRENT STATE OF THE PRESERVATION AND RESEARCH OF ANCIENT WRITTEN SOURCES"